



journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

ISSUES OF INDUSTRIAL SPECIALIZATION OF TASHKENT CITY AND ITS IMPROVEMENT

J. M. Israilov

Master's student

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: industry, Tashkent city, capital, territorial structure, district, industrial enterprise, sectors.

Received: 12.12.22

Accepted: 14.12.22

Published: 16.12.22

Abstract: The article examines the economic and geographical issues of industrial production of Tashkent city and its improvement. First of all, the main attention is paid to the structure of industries and regional structure of the capital's industry.

TOSHKENT SHAHRINING SANOAT IXTISOSLASHUVI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

J. M. Isroilov

Magistratura talabasi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: geoekologiya, landshaft, geoekologik holat, atrof-muhit, atmosfera, yashil iqtisodiyot.

Annotatsiya: Maqolada Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarish saloxiyati va uni yaxshilashning iqtisodiy geografik masalalari tadqiq etilgan. Bunda avvalo poytaxt sanoatining tarmoqlar tarkibi, hududiy tarkibiga asosiy etibor qaratilgan.

ВОПРОСЫ ПРОМЫШЛЕННОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ ГОРОДА ТАШКЕНТА И ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Ж. М. Исраилов

магистрант

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: промышленность, город Ташкент, столица, территориальное

Аннотация: рассмотриваются

В статье
ЭКОНОМИКО-

устройство, район, промышленное предприятие, отрасли.

географические вопросы промышленного производства города Ташкента и его совершенствования. В первую очередь основное внимание уделяется структуре отраслей и региональной структуре столичной промышленности.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakat iqtisodiy salohiyatining negizini bevosita sanoat ishlab chiqarishi tashkil etadi. Sanoat nafaqat mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beradi, balki uning innovatsion rivojlanishiga ham poydevor yaratadi. Shu sababdan, O'zbekiston rahbariyati ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, respublikamiz sanoatini texnik-texnologik diversifikatsiya qilishga sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratib kelmoqda.

Bu borada, ayniqsa so'ngi besh yillik mobaynida sezilarli siljishlarga erishildi. Binobarin, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi 3.2 hamda 3.5 bandlarida sanoatni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishga, viloyatlar, tumanlar va shaharlarni kompleks va muvozanatlari rivojlanish, bunda ularning sanoat salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlash belgilab qo'yilgan bo'lsa, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida yalpi ichki maxsulotda sanoat ulushini oshirish masalasi strategik vazifa qilib belgilangan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi milliy iqtisodiyotada yetakchi mavqeyga ega bo'lgan – poytaxt Toshkent shahrining sanoat salohiyatini iqtisodiy geografik tahlil qilish va shu asosda uning ixtisoslashuvini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilishdan iborat.

Buning uchun avvalo quyidagi vazifalarni xal qilish belgilangan:

- Toshkent shahriring milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va roliga baho berish;
- Toshkent shahrining yalpi sanoat maxsulotini tarmoqlar tarkibi bo'yicha tadrijiy o'zgarishlarni aniqlash;
- sanoatning tarmoqlar va hududiy tarkibini tahlil qilish va ixtisoslashuvini aniqlash;
- Poytaxt sanoatini diversifikatsiya qilish hamda istiqbolda rivojlanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida – Toshkent shahri sanoatining hududiy tarkibi olingan bo'lsa uni rivojlanish va takomillashtirishning hududiy muammolarini tadqiq qilish, tadqiqotning predmeti bo'lib hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Toshkent shahri mamlakatimizning nafaqat poytaxti, siyosiy, madaniy markazi, balki uning yirik iqtisodiy markazi hisoblanadi. Poytaxtning iqtisodiy ishlab chiqarish salohiyati, avvalo sanoat bilan belgilanadi. 2021- yil holatiga ko‘ra Toshkent shahri respublika yalpi sanoat maxsulotining 19,8% ni bergen. Poytaxt sanoati tarkibida oziq ovqat sanoati, metallurgiya sanoati, elektr uskunalar ishlab chiqarish, kompyuterlar, elektron optik maxsulotlar ishlab chiqarish, to‘qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish kabi tarmoqlar ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Bularidan tashqari qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarish, ichimliklar ishlab chiqarish, Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish kabi sanoat tarmoqlari bo‘yicha ham poytaxt mamlakatda alohida o‘rin egallaydi (*I-jadval*).

1-jadval

Toshkent shahri sanoating tarmoqlar tarkibi, 2015-2021 yy., %

		2015 y.	2021 y.	O‘sish, % da
1	Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash	0,7	16,2	2314
2	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	17,3	9,3	53,7
3	Ichimliklar ishlab chiqarish	5,8	5,1	87,9
4	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	7,4	5,4	72,9
5	Kiyim ishlab chiqarish	2,3	1,5	65
6	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,9	0,2	22
7	Yog‘och va po‘kak buyumlar mebel ishlab chiqarish	2,7	1,9	70,3
8	Qog‘oz mahsulotlari va Yozilgan materiallarni nashr qilish	4,2	3,1	73,8
9	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	4,1	3,3	80,4
10	Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	2,9	3,7	127,5
11	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	6,4	3,9	60,9
12	Metallurgiya sanoati	8,5	11,4	134,1
13	Tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	6,8	4,4	64,7
14	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	2	5,5	275
15	Elektr uskunalar ishlab chiqarish	5,4	8,6	159,2
16	Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar mashina va boshqa uskunalar ishlab chiqarish	5,5	3,8	69,1
17	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash	6,6	3,7	56,1

18	Suv bilan ta`minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish	1,8	1,5	83,3
19	Boshqa tarmoqlar	8,7	7,5 %	86,2
	Jami	100 %	100%	

Jadval www.toshstat.uz ma`lumotlari asosida tuzilgan.

2021-yilda Toshkent shahrida jami 90211,9 mlrd so`mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo`lib, bu ko`rsatgich 2015 yilga (18986,1 mlrd so`m) nisbatan 4,7 barobarga o`sigan. Bunda, tog` kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, metallurgiya sanoati, farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish, elektr uskunalar ishlab chiqarish, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish kabi tarmoqlarning xissasi katta. Ammo shu bilan birga poytaxt sanoati jami ulushida 2015-yilga nisbatan 2021-yilda oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (53,7%), to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (72,9%), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (60,9%), tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish (64,7%), avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar mashina va boshqa uskunalar ishlab chiqarish (69,1%) kabi tarmoqlar ulushi sezilarli kamaygan.

Toshkent shahri bo`yicha jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida esa tumanlar ulushi turlicha ekanligini ko`rishimiz mumkin. Bunda Yashnobod, Sergeli, Mirobod, Chilonzor tumanlari jami sanoat mahsulotining yarmidan ortig`ini beradi (1-jadval).

2021-yilda Yashnobod tumanining shahar bo`yicha jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 26,3 % -eng yuqori ko`rsatgichga ega bo`ldi. Mazkur tumanda garchi soni kam bo`lsada, yirik ishlab chiqarish korxonalar joylashgan.

Umuman olganda, Toshkent shahri sanoatining joylashuvida 2010-2021-yillarni o`zaro taqqoslab ko`rganimizda, dastlab 2010-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi uchta yirik tumanlar - Shayxontohur, Chilonzor, Mirzo Ulug`bek kabilar yetakchi bo`lsa, 2021-yilda esa Yashnobod tumani boshqalardan ancha oldingi o`rinni egallaganligini ko`rish mumkin.

Toshkent shahri Respublikaning eng yirik sanoat markazidir. Mamlakatda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotning 19 % ga yaqini poytaxt hissasiga to`g`ri keladi. Shahar sanoatida 25 tarmoqqa mansub 16 mingdan ziyod katta va kichik sanoat korxonalar ishlab turibdi. Sanoat ishlab chiqarish tarkibida elektr energetikasi, mashinasozlik va metallurgiya sanoati va metalga ishlov berish, binokorlik materiallari, yengil va oziq ovqat sanoati kabi tarmoqlar salmoqli o`rinni egallaydi. Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent mexanika zavodi, “Algoritm”, „Zenit“ ishlab chiqarish birlashmalari, elektronika zavodi, “Artel Electronics” MCHJ, “Zelal Tekstil”, va binokorlik korxonalarining keng tarmog`i ishlab turibdi. Bu korxonalar o`z mahsuloti bilan eksportga chiqmoqda.

2-jadval

**Toshkent shahri bo‘yicha yalpi sanoat mahsulotining hududiy tarkibi
(2010-2020 yy., %)**

Tumanlar	2010 yil	2013 yil	2021 yil
Yashnobod	10,8	15,1	26,3
Miribod	8,4	8,2	8,9
Sergeli	7,4	7,3	7,5
Mirzo-Ulug‘bek	12,2	10,9	5,7
Uchtepa	3,9	6,1	5,3
Olmazor	5,8	11,6	7,7
Bektemir	5,1	7,0	7,0
Yunusobod	5,0	7,2	5,4
Chilonzor	14,9	9,8	9,9
Shayxontohur	21,2	11,4	6,8
Yakkasaroy	5,3	5,4	6,2
Yangihayot			3,3

Jadval www.toshstat.uz ma`lumotlari asosida tuzilgan.

2017-yilda qurilishi boshlanib 2020-yilda qurib bitqazilgan „Toshkent metallurgiya zavodi” yaqin istiqbolda poytaxt sanoatining lokomotiviga aylanishi kutilmoqda. Davlat rahbari SH. M. Mirziyoyev ushbu majmua ochilishini „tarixiy voqeа” deb atadi. „Harakatlarimizning asosiy maqsadi yaqin yillarda yaxlit, „noldan tayyor mahsulotgacha” bo‘lgan metal ishlab chiqarish klasterini yaratishdan iborat dedi prezident. Zavod yillik quvvati 500 million dollarlik Rux va polimer qoplamlari listlar ishlab chiqarmoqda. Zavod mahsulotlari qurilish sanoatida (metal koshinlar, havo quvurlari, sendvich panellar, rulonli uchastkalar, yengil po‘latdan yasalgan yupqa devorli konstruksiyalar ishlab chiqarish), maishiy texnika (korpus konstruksiyasi), mashinasozlikda (avtomobil ustki qismlarini ishlab chiqarish) da ishlatilmoqda. Toshkent shahar statistika boshqarmasi malumotlariga ko‘ra metallurgiya sanoati 2020-yilda 4,793,7 trln so‘m qiymatdagi mahsulot bergen bo‘lsa zavod qurilgan dastlabki 2021-yilda poytaxt metallurgiya sanoati 10,251,0 trln so‘mlik mahsulot bergen. Metallurgiya sanoati 2020-2021-yillarda 2 barobardan ko‘p miqdorda o‘sib, bu o‘sish poytaxt sanoati tarmoqlari orasida eng kattasi bo‘ldi.

Tumanlar miqyosida sanoat ixtisoslashuvi jumladan 2021yilda poytaxt sanoati tarkibida tumanlar sanoat ixtisoslashganligi bo‘yicha Bektemir, Mirzo ulug‘bek, Mirobod, Yashnobod tumanlari alohida ajralib turadi. Ushbu tumanlar asosan og‘ir sanoat-mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektr uskunalar, kompyuter va elektron optik mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

Keljakda shahar sanoati rivojlantirishda uning transport, iqtisodiy, ekologik, mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, bunda poytaxt sanoatining joylashuviga Anqara shahri misolida (Anqarada shahrida joylashgan sanoat obyektlarini tartibsiz joylashtirishni bartaraf etish uchun, 1990 yil shahar atrofida birinchi sanoat zonasi tashkil etilgan bo‘lib, unda Anqara sanoatining 80% gacha qismi to‘plangan) ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shahar chekkasida ixtisoslashgan sanoat zonalari tashkil etish orqali shahar havosini ifloslanishdan asrash mumkin bo‘ladi. Kooperatsiyani rivojlantirish orqali ixtisoslashishni oshirish ishlab chiqarilayotgan va import qilinayotgan sanoat mahsulotlarini solishtirgan holda import o‘rnini bosuvchi tarmoqlarni ko‘paytirish, shahar atrofida kichik sanoat zonalari tashkil etish, Yana bir muhim masala borki, bu sanoat tovarlarini yetkazib berish bilan bog‘liq. transport xizmatlari narxini kamaytirish, mahsulotlarni tashqi bozorlardagi texnik sifat talablariga uyg‘unlashtirish masalalarini hal qilish, mahsulotlarni tashqi bozorlardagi texnik sifat talablariga uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Egamberdiyeva U.T. Sanoat geografiyasi. Darslik.- T., 2019. B- 13.
2. www.stat.uz
3. www.toshstat.uz
4. www.wikipediya.com